

Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida
SHARTNOMA № 170100991679 sonli 05.01.2022 yildan

2022 yil «5» avgust

Toshkent sh.

O'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari agentligi (huquqiy vorisi – O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi) tomonidan berilgan 08.09.2014 yildagi AA 0005149 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005150 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005151 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005152 sonli; 08.10.2019 yildagi AA 0006976 sonli; 05.12.2019 yildagi AA 0008015 sonli litsenziyalar asosida olib boruvchi va keyingi o'rinlarda "Operator" deb ataluvchi "Universal Mobile Systems" mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi "UMS" MCHJ), o'z vakili – 2021 yil "06" dekabrda 0349/21 sonli ishonchnoma asosida ish olib boruvchi **Irsov Abror Israilovich** orqali bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Abonent" deb ataluvchi "UK "Chirchiq Gidravlik Elektr Stansiyalar Kaskadi", o'z vakili – Abonent asosida ish olib boruvchi orqali ikkinchi tomondan (birgalikda "Taraflar", alohida "Taraflar" deb ataladi) Mobil aloqa xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Atamalar va ta'riflar. Talqin.

Ushbu shartnoma bo'limlarining barcha sarlavhalari faqat ulardan foydalanish (ularni o'qish) qulayligini mo'ljallab qo'llanildi va shartnoma shartlari talqiniga hech qanday tarzda ta'sir ko'rsatmaydi.

Ushbu shartnoma maqsadlari uchun quyidagi asosiy atamalar va ta'riflar qo'llanildi:

Abonent – Operator bilan ushbu shartnomani imzolagan, tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilari bilan byudjet ajratmalari bo'yicha shartnomalari, shuningdek ularga o'zgartirish va qo'shimchalar g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tganidan keyin kuchga kiradigan byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'larini oluvchi.

Abonent qurilmasi – abonent mulki bo'lgan yoki unga vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berilgan, telekommunikatsiyalar tarmoqlari bilan aloqa bog'lab, telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni hosil qilish, o'zgartirish, qayta ishlash uchun mo'ljallangan texnik vosita.

Abonent qurilmasi O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan standartlarga muvofiq ushbu turdagi uskunalarga qo'yiladigan texnik talablarga javob berishi, shuningdek O'zR qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda muvofiqlik sertifikatini bo'lishi kerak.

Aloqa xizmatlaridan foydalanish uchun Abonentga berilgan SIM-karta qo'yilgan Abonent qurilmasi yordamida amalga oshirilgan xatti-harakatlar Abonent nomidan amalga oshirilgan hisoblanadi.

Abonent raqami – SHartnoma amal qiladigan davr uchun Operator tomonidan Abonentga beriladigan raqam.

Alohida toifadagi abonent raqami – raqamlarning muayyan izchilligi (kombinatsiyasi) bilan ajralib turadigan Abonent raqami bo'lib, u Operator tomonidan raqamlarning har bir toifasi uchun belgilangan tarif bo'yicha qo'shimcha haq evaziga taqdim etiladi.

Abonentga alohida toifadagi abonent raqamini taqdim etish tartibi Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Alohida toifadagi abonent raqamini taqdim etish tartibi to'g'risidagi batafsil axborot Abonentga Operatorning o'z ofislarida, shuningdek tegishli ma'lumotlarni Operatorning Veb-saytida joylashtirish, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish yo'li bilan, shuningdek Operator ma'qul topgan boshqa usullarda yetkaziladi.

Ushbu shartnoma matnida "Abonent raqami" deyilganda alohida toifadagi abonent raqamlari ham tushuniladi.

AHKT – avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimi (apparat-dasturiy kompleks) bo'lib, u Operator bilan Abonent o'rtasidagi hisob-kitoblar avtomatlashtirilishini ta'minlash, shuningdek ko'rsatilgan Aloqa xizmatlari hisobini yuritish va axborotga ishlov berish uchun mo'ljallangan.

Abonent to'lovi – Tarif rejalarining hamda Alohida xizmatlar to'plamlari va boshqa xizmatlarni ko'rsatish shartlariga muvofiq, Operator tomonidan muayyan (hisob-kitob) davri (oy, chorak, yil va h.k.) uchun Abonentdan undiriladigan, miqdori qat'iy belgilangan to'lov bo'lib, u Abonent aloqa xizmatlaridan qancha hajmda foydalanganidan qat'i nazar, Operator belgilagan miqdorda va muddatlarda Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'idan chiqarib olinadi.

Operatorning Veb-sayti – Operatorning www.mobi.uz elektron manzilida joylashgan axborot resursi.

Kontent – Abonentning so'rovi asosida SMS, MMS, GPRS orqali olingan, axborot, ko'ngilochar yoki boshqa tusdagi matnli yoxud multimedia ma'lumotlari.

Kontent-provayder – Operator tarmog'i orqali Abonentlarga tijorat asosida kontent xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Kontent-provayderlar hamda ular ko'rsatadigan Kontent xizmatlari ro'yxati Operatorning veb-saytida, shuningdek Kontent-provayderlarning veb-saytlarida bor.

Shaxsiy (elektron) hisobvaraqa – Operatorning avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimidagi tafsiliy elektron hujjat bo'lib, Abonent foydalanilayotgan xizmatlar haqini to'lashi uchun mo'ljallangan. Unda Aloqa xizmatlaridan foydalanish davomida Abonent to'lagan va sarflagan pul mablag'lari to'g'risidagi axborot pul ekvivalentida saqlanadi.

Abonent to'lagan pul mablag'larini va ular yechib olinishini shaxsiy (elektron) hisobvaraqa aks ettirish tartibi Operator tomonidan belgilanadi.

Alohida xizmatlar to'plami – Tarif rejasi tarkibiga kirmagan muayyan hajmdagi Aloqa xizmatlari.

Operator ofisi – Operator Abonentlarni qabul qiladigan va ularga xizmat ko'rsatadigan, abonentlarga oid ma'lumotlar bazasi hamda Operatorning faoliyati bilan bog'liq barcha hujjatlar saqlanadigan va ishlov beriladigan xona, bino. Operatorning bosh ofisi va uning O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi Xizmat ko'rsatish markazlari joylashgan manzil, ularning ish vaqti to'g'risidagi axborot Operatorning Veb-saytida ko'rsatiladi va zarurat bo'lishiga qarab (masalan, joylashgan manzil o'zgargan va boshqa hollarda), belgilangan tartibda yangilab boriladi.

Dastlabki bo'nak to'lovi – shartnoma bo'yicha xizmatlar umumiy qiymatining 100 % dan kam bo'lmagan miqdordagi oldindan to'lov summasi.

Operator tarmog'iga kirish imkoniyatini berish – Abonentning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish va ularni Operatorning apparat-dasturiy kompleksiga kiritish borasida Operator tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar. Abonent Dastlabki bo'nak to'lovini amalga oshirganidan keyin Operator tarmog'iga kirish imkoniga ega bo'ladi.

Radiotelefon orqali ulanish davomiyligi – bu, javob signali abonentning javobiga tenglashtiriluvchi chaqirilayotgan abonent yoki uskuna javobining birinchi soniyasidan boshlab chaqirayotgan yoki chaqirilayotgan abonent yoxud shunday uskuna aloqani uzgan lahzagacha o'tgan vaqt oralig'i.

Rouming (Roaming) – Abonent O'zbekiston Respublikasidan tashqarida, boshqa mamlakatda bo'lganida Abonent Operator tarmog'ida dastlab ro'yxatdan o'tganidagi ma'lumotlar albatta saqlangan holda u boshqa mobil (uyali) aloqa operatorining tarmog'iga kirishini ta'minlovchi aloqa xizmati. Operatorning rouming-hamkorlari, rouming xizmatlarini ko'rsatish shartlari to'g'risidagi axborot Operator ofislarida va/yoki Operator veb-saytida saqlanadi.

Radiotelefon orqali ulanish – ikkita abonent qurilmasi, foydalanuvchi o'rtasida axborot almashish imkonini ta'minlovchi radiotelefon aloqasini o'rnatish. Bunda Abonent foydalanuvchilarning biri bo'ladi.

Operator tarmog'i – Abonentga Aloqa xizmatlarini taqdim etishda qo'llaniladigan texnik vositalar majmui (kommutatsiya va radio uskunalari, abonent qurilmalari, ulanish liniyalari, inshootlari va h.k.).

Aloqa xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga oid Kelishuv (keyingi o'rinlarda – “Kelishuv”) – ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lib, unda Abonent haqidagi, Abonentga berilgan abonent raqami, Abonent tanlagan Aloqa xizmatlari, Abonent unga ulab berilgan abonent raqamlaridan foydalanish uchun mo'ljallagan abonent qurilmalarining turlari, to'lovnomani yetkazib berish usuli to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek shartnomaning boshqa muhim shartlari qayd etiladi. Kelishuv Operator tomonidan Abonentga SIM-karta berilganligini tasdiqlovchi hujjat ham hisoblanadi. Kelishuv Abonentga berilgan har bir abonent raqami yoki tarif rejasi bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Tarif – Aloqa xizmatining o'lchov birligi uchun Operator tomonidan belgilanadigan narx.

Tarif rejasi – narxlarga oid shartlar majmui bo'lib, Operator ular asosida abonentlarga yoxud abonentlarning muayyan doirasiga yoki cheklangan hududda bir yoki bir nechta mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishni taklif qiladi.

Operator Abonentga uning uchun maxsus ishlab chiqilgan individual tarif takliflari asosida aloqa xizmatlarini taqdim etishga haqli.

Aloqa xizmatlarini ko'rsatishga oid texnik imkoniyat – Operatorning xizmat ko'rsatish hududida Abonentga Aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur ishlab turgan texnik aloqa vositalari va inshootlari mavjudligi.

Operator tarmog'iga kirish uchun ruxsat berish borasidagi texnik imkoniyat – Operatorning raqam sig'imida bo'sh raqamlar va/yoki aloqa kanallari, shu jumladan, mavjud radiochastota resursini hisobga olgan holda radiokanallar mavjudligi.

Aloqa xizmatlari – Operator Tarmog'iga kirish imkoniyatini berish, radiosignallar yoki ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va jo'natish borasida tasdiqlangan va amalda bo'lgan Tariflarga va (yoki) Tarif rejalariga muvofiq Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, shuningdek Operator o'zining xizmat ko'rsatish avtomatik tizimidan foydalangan holda Abonentga ko'rsatadigan boshqa xizmatlar.

Operator Aloqa xizmatlari ro'yxatini Operator Tarmog'ining Texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda belgilaydi.

GPRS (General Packet Radio Service) – ma'lumotlarni radiokanal orqali to'plam tarzida jo'natish aloqa xizmati.

SMS (Short Message Service) – Abonentga qisqa matnli xabarlarini Abonent qurilmasi orqali (undan foydalangan holda) yuborish va olish imkonini beruvchi Aloqa xizmati.

SIM-karta (Subscriber Identity Module) – mikrosxema o'rnatilgan identifikatsiya moduli bo'lib, uning yordamida Abonent qurilmasi identifikatsiyalanishi, u mobil aloqa tarmog'iga kirishi, shuningdek abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya ta'minlanadi.

SIM-karta turli Abonent qurilmalariga o'rnatilganida Abonentning tarmoqdagi barcha qaydlari va unga berilgan Abonent raqami saqlanib qoladi. SIM-karta/eSIM bilan bajarilgan barcha xatti-harakatlar Abonent nomidan amalga oshirilgan hisoblanadi.

eSIM (embedded SIM) – abonent qurilmasini virtual identifikatsiyalash moduli. Uning yordamida abonent qurilmasi identifikatsiyalanishi, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalanish imkoniyati, shuningdek abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanish istisno etilishi ta'minlanadi. **GSM-shlyuz** – ko'p yoki bitta kanalli mobil qurilma hamda dasturiy-texnik vosita. U internet tarmoqqa, umumiy foydalanishdagi stantsionar tarmoqqa va/yoki mobil operator tarmog'iga ulanadi hamda tarmoq ichidagi qo'ng'iroq/SMS yoki O'zbekiston Respublikasi ichida boshqa tarmoqlarga qo'ng'iroq/SMS tarifkatsiyasini ta'minlash uchun abonent SIM-kartasi yoki raqamidan foydalangan holda quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- VoIP kanalidan har qanday kiruvchi xalqaro qo'ng'iroqlarni GSM tarmoqning kanallaridan biriga qayta yo'naltirish;

- chaqiruv/SMSni tarmoq ichidagi chaqiruv/SMS sifatida yoki O'zR hududida bo'lgan boshqa tarmoqlarga chaqiruv/SMS sifatida tariflash uchun SIM-karta/eSIM yoxud raqamdan foydalangan holda kiruvchi xalqaro/mahalliy SMS (bir martalik parol – OTR, verifikatsiyalash SMSlari va h.k.)ni qabul qilish va qayta jo'natish.

2. SHartnoma predmeti

2.1. Operator o'z tarmog'ining texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda Abonentga Aloqa xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini oladi, Abonent esa, Aloqa xizmatlari haqini ushbu SHartnomada belgilangan shartlarda va tartibda to'lash majburiyatini oladi.

2.2. Aloqa xizmatlari ko'rsatish uchun Operator Abonentga Kelishuvda (Kelishuvlarda) ko'rsatilgan abonent raqami (raqamlari)ni beradi.

2.3. Tarif rejalarining shartlari, Alohida xizmatlar to'plamlarini va boshqa aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlari va tartibi, shu jumladan, Alohida toifadagi Abonent raqamini berish shartlari va tartibi, konstruktor rejimidagi maxsus moslashuvchan tariflar, individual tarif takliflari Operator tomonidan belgilanadi hamda Operator ofislarida, Operator Veb-saytida va/yoki ommaviy axborot vositalarida ma'lum qilinadi.

Kelishuv (Kelishuvlar), Tarif rejalarining shartlari, Alohida xizmatlar to'plamlarini va boshqa aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlari va tartibi, shu jumladan, Alohida toifadagi Abonent raqamini berish shartlari va tartibi, konstruktor rejimidagi maxsus moslashuvchan tariflar, individual tarif takliflari ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

3. Aloqa xizmatlarini ko'rsatish tartibi

3.1. Ushbu shartnoma imzolanganidan so'ng Aloqa xizmatlarini ko'rsatish borasidagi Operatorning majburiyati Abonent dastlabki bo'nak to'lovini kiritganidan keyin yuzaga keladi.

Keyinchalik, Abonentning shaxsiy hisobvarag'ida ijobiy balans mavjud bo'lganda Operator Abonentga Aloqa xizmatlarini ko'rsatishga majbur.

Operator ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv asosida Abonentga uning shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida salbiy balans bo'lganda ham Aloqa xizmatlaridan foydalanish imkonini berishga haqli. Bunda to'lov muddati, to'lovni kechiktirilgan rejimda amalga oshirish imkoniyati bilan Aloqa xizmatlaridan foydalanish mumkin bo'lgan eng uzoq muddat va boshqa shartlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

3.2. Abonent Aloqa xizmatlaridan foydalanishi uchun unda Abonent qurilmasi bo'lishi kerak. Abonent ulangan abonent raqamlaridan (SIM-kartalardan) foydalanishda ishlatmoqchi bo'lgan abonent qurilmalarining turi (mobil telefon, USB-modem, elektr energiyasi/suv/gaz hisoblagichlari, onlayn to'lovlar terminalari va boshqalar) ushbu shartnomaga qo'shimcha Kelishuvlarda ko'rsatiladi. Bunda Operator Abonentga Abonent qurilmasini taqdim etishga, shuningdek uning Abonent qurilmasini, apparat va dasturiy ta'minotini sozlab berishga majbur emas.

3.3. Operator Kelishuv asosida shartnoma amal qiladigan davr uchun Abonentga Operator tarmog'iga kirish imkoniyatini ta'minlay oladigan Abonent raqami yoki Alohida toifadagi abonent raqamini va SIM-kartani/eSIM uchun QR-kod ko'rinishida identifikatsiya profilini taqdim etadi. Beshta va undan ortiq abonent raqamlari Abonent shuncha raqamga ehtiyoj borligini yozma ravishda asoslab berganidan keyingina ulanadi.

3.4. Aloqa xizmatlari Operator tomonidan har kuni, kecha-yu kunduz (sutkasiga 24 soat), tanaffuslarsiz ko'rsatiladi, faqat zarur profilaktika va ta'mirlash ishlari bajariladigan vaqtlar bundan mustasno.

Profilaktika va ta'mirlash ishlari olib boriladigan, shuningdek yirik avariya yuz bergan hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishga sarflanadigan vaqt Aloqa xizmatlarini ko'rsatishdagi tanaffus va (yoki) Aloqa xizmatlari ko'rsatishning belgilangan muddatlarini buzish hisoblanmaydi.

Operator tarmog'ida yirik avariya yuz berib, buning oqibatida Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'xtab qolgan hollarda Operator Abonentga bu haqda, shuningdek Aloqa xizmatlari qachon yana ko'rsatila boshlanishi to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali yoki Operatorning veb-saytida tegishli axborotni joylashtirish yo'li bilan xabar berishi shart.

Abonent qurilmasidagi, boshqa operatorlar tarmog'i uskunalaridagi (shu jumladan shahar telefon tarmog'idagi) nosozliklar Xizmatlar ko'rsatishdagi tanaffuslar hisoblanmaydi.

3.5. Abonentga O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan yagona raqamlarni terish orqali kecha-kunduz istalgan vaqtda shoshilinch tezkor xizmatlarni bepul chaqirish imkoniyati ta'minlanadi. Bu raqamlar:

- 101 – o't o'chirish xizmati;
- 102 – ichki ishlar organlari (militsiya);
- 103 – tez tibbiy yordam;
- 104 – gaz tarmog'i avariya xizmati;
- 1050 – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining qutqaruv xizmati;
- 112 – yagona shoshilinch xizmat.

3.6. Operatorning Aloqa xizmatlari sifati O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan texnik normalarga mos keladi hamda Operatorga berilgan litsenziyal talablariga javob beradi.

3.7. Abonentga ko'rsatiladigan Aloqa xizmatlari, Operator tarmog'ining konstruktiv xususiyatlari sababli, Operatorning vakolatlari doirasidan tashqarida bo'lgan boshqa uyali aloqa operatorlari, mahalliy simli telefon liniyalari operatorlarining uskunalari, xalqaro va shaharlararo aloqa operatorlarining uskunalari sifatiga bog'liqdir.

3.8. Abonent maxfiy so'zni aytib, Operatorning Ma'lumot bo'limidan axborot olishga haqli. Abonent Maxfiy so'zni aytganida Operator unga xizmat ko'rsatish protsedurasi to'g'risida to'liq ma'lumot berish majburiyatini oladi.

3.9. Quyidagi holatlar oqibatida aloqa sifati yomonlashsa yoki aloqa uzilsa, buning uchun Operator javobgar bo'lmaydi:

- a) radioto'lqinlar tabiiy tarzda tarqalishi va ustma-ust kelib qolishi;
- b) Abonent elektr uzatish liniyalari, binolar yaqini yoki ichida, yer osti yo'llarida, yerto'lalarda va boshqa yer osti inshootlarida bo'lishi;
- v) relef va qurilishlarning mahalliy xususiyatlari;
- g) mahalliy simli telefon liniyalari operatorlari hamda xalqaro va shaharlararo aloqa operatorlariga tegishli uskunalarining texnik tavsiflari va holati, meteorologik shart-sharoit ta'sirida;
- d) Abonent nosoz (belgilangan talablarga javob bermaydigan) Abonent qurilmasidan yoki ishlab chiqaruvchi yoxud Operator bilan kelishmasdan o'zgartirilgan yoki modifikatsiyalangan yoxud sozlovlar Operator tavsiyalariga mos kelmaydigan Abonent qurilmasidan foydalanishi;
- e) Operator bilan kelishmasdan o'zgartirilgan (almashtirilgan, modifikatsiyalangan) SIM-kartadan foydalanilishi;
- yo) eSIM Abonentning xatti-harakatlari natijasida o'zgartirilgan, almashtirilgan, modifikatsiyalangan, shikastlangan abonent qurilmasida qo'llanilganda;
- j) Operator ta'sir ko'rsata olmaydigan yoxud oldindan bilolmaydigan boshqa sabablar tufayli, shu jumladan ushbu SHartnomaning 3.7-bandida ko'zda tutilgan hollarda.

3.10. Operator Abonentning so'rovi asosida Kontent-provayder tomonidan Operator tarmog'i orqali tarqatiladigan Kontentning sifati (taqdim etilmasligi, o'z vaqtida yetib bormasligi va mazmuni) uchun javob bermaydi.

3.11. Operator uchinchi tomon yetkazib bergan va Operator tavsiya qilmagan amaliy dasturiy ta'minot to'g'ri ishlashini kafolatlamaydi va buning uchun javobgar bo'lmaydi, "Internet" tarmog'ida o'rnatilgan ma'lumot serverlarining ishga yaroqliligi hamda Abonent qurilmasining amaliy dasturiy ta'minoti bunday serverlarning dasturiy ta'minoti bilan mos kelishi uchun javob bermaydi.

3.12. Abonent Aloqa xizmatlaridan shaxsiy maqsadlardagina foydalanishi shart. Bunda Abonentga quyidagilar taqiqlanadi:

- a) Abonent raqamidan lotereyalar, ovoz berishlar, tanlovlar, viktorinalar, reklama, so'roqlash tadbirlari, Operator bilan kelishilmagan ommaviy xabar jo'natishlarda, qat'iy belgilangan aloqa, Internet-telefoniya tarmoqlariga kirish shlyuzlarini o'rnatishda hamda Abonent uskunasining va (yoki) aloqa qurilmalarining ish qobiliyati buzilishiga olib keluvchi boshqa tadbirlarni o'tkazishda foydalanish;
- b) uchinchi shaxslarga Operator tarmog'iga ulangan SIM-kartadan GSM-shlyuzlar orqali va/yoki unga bir yoxud bir nechta telefon apparatini yoki tashqi mini-ATS liniyasini ulash imkonini beruvchi boshqa qurilmalar orqali foydalanish huquqini berish;

v) o'zining Abonent qurilmasidan dasturiy ta'minotni tarqatish, IP-manzillarni soxtalashtirish maqsadida Aloqa xizmatlaridan foydalanish, Operator va (yoki) Operator bilan bog'liq uchinchi shaxslarning tarmog'i normal ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlarni sodir etish, Aloqa xizmatlaridan GSM-shlyuzlarda va qat'iy belgilangan aloqa tarmog'iga, Internet-telefoniyaga kirish shlyuzlarida foydalanish.

3.13. Abonent shartnomani o'zi istagan vaqtda bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli. Lekin Abonent bu haqda Operatorni kamida 10 (o'n) ish kuni oldindan xabardor qilishi hamda Aloqa xizmatlari uchun Operator oldidagi mavjud qarzini uzishi shart.

3.14. Operator quyidagi hollarda shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli:

a) Abonent Bo'nak to'lovini Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'xtatilgan sanadan boshlab surunkasiga 90 kun mobaynida amalga oshirmaganda (qarzni so'ndirmaganda);

b) Abonent mobil aloqa xizmatlaridan foydalanish huquqini beruvchi tranzaksiyalarni surunkasiga 90 kun mobaynida amalga oshirmaganda;

v) ijro uchun imkoniyat bo'lmaganda (Operator tarmog'iga kirish imkonini berishning yoki Abonent so'ragan Aloqa xizmatlarini ko'rsatishning Texnik imkoniyatidan maxrum bo'linganda);

v) Abonent shartnomada belgilangan Aloqa xizmatlaridan foydalanish qoidalarini buzganda, xususan bunga GSM-shlyuzlardan foydalanish sabab bo'lganda, Operator tarmog'ida tovushli trafikni uzatish tartibini buzganda. Bunda Abonent Operatorga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi;

g) Abonent tugatilganda;

d) davlat organining hujjati qabul qilinib, buning oqibatida Taraflar o'z majburiyatlarini bajarishlari imkonsiz bo'lib qolganda;

e) ushbu shartnomada va (yoki) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

3.15. Abonent xodimlarining abonent ma'lumotlari bazasiga kiritilgan shaxsiy ma'lumotlari, shu jumladan telekommunikatsiya siri hisoblanuvchi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlarining so'roviga ko'ra taqdim etish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

3.16. Operator Abonent xodimlarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishni shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab Operator Abonent haqidagi va ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi axborotni saqlashi shart bo'lgan muddat tugagunicha qilib belgilanadigan muddat mobaynida amalga oshiradi.

4. Operatorning huquq va majburiyatlari

4.1. Operator quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Ushbu shartnomada ko'zda tutilgan tartibda yangi Tarif rejalarini (Xizmatlarni) joriy etish va (yoki) Xizmatlar ko'rsatishning (Tariflarning) amaldagi shartlariga o'zgartishlar kiritish orqali Aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlari, shu jumladan Tarif rejalarining shartlarini belgilash.

4.1.2. Abonent shartnoma shartlarini, jumladan Aloqa xizmatlari haqini to'lash muddatlarini buzgan hollarda, Abonent GSM-shlyuzlardan foydalanayotgani belgilarini mustaqil ravishda yoki boshqa operatorlarning ma'lumotlari asosida aniqlagan taqdirda Aloqa xizmatlari ko'rsatilishini to'xtatib qo'yish. Aloqa xizmatlari haqini to'lash muddatlari buzilgani uchun Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'xtatib qo'yilganda Abonentning shaxsiy hisobvarag'ida salbiy balans yuzaga kelgan vaqtdan boshlab 90 kalendar kun mobaynida qarz uzilgan taqdirda Aloqa xizmatlari yana taqdim etila boshlanadi.

4.1.3. Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'idagi mavjud pul mablag'larini Abonentning boshqa barcha shaxsiy (elektron) hisobvaraqlaridagi qarzdorlikni so'ndirish uchun chiqarib olish.

4.1.4. Radiotelefon orqali ulanishning maksimal davomiyligini belgilash (cheklash).

4.1.5. Abonent maxsus tariflar (tarif rejaları) yoki xizmatlar to'plamlaridan Operator belgilagan talablarga xilof ravishda noo'rin foydalangan aniqlangan hollarda, Abonentni 15 kalendar kun oldin ogohlantirib, uni boshqa tarif rejasiga o'tkazish.

4.1.6. Abonent tovushli trafikni uzatish tartibini buzganligi aniqlangan hollarda Abonentga xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish.

4.2. Operatorning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

4.2.1. Ushbu shartnoma amal qiladigan davr uchun Abonentga Abonent raqami yoki Alohida toifadagi Abonent raqami va SIM-karta berish/eSIM uchun QR-kod ko'rinishidagi identifikatsiya profilini taqdim etish..

4.2.2. Abonentga sifati vakolatli organlar belgilaydigan parametrlarga (ulanish, ma'lumot jo'natish, aloqani uzish borasida), shuningdek Operator tarmog'ida qo'llaniladigan standart texnik normalarga mos keluvchi Aloqa xizmatlarini ko'rsatish.

4.2.3. Abonent O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan vaqtda unga Aloqa xizmatlarini ko'rsatish.

4.2.4. Abonentga Operator ko'rsatadigan Aloqa xizmatlari haqida to'g'ri axborot berish.

4.2.5. Aloqa xizmatlari ko'rsatilishi davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish.

4.2.6. Abonentga qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda axborot-ma'lumot xizmatlarini ko'rsatish.

4.2.7. Operator O'zbekiston Respublikasining va xorijiy davlatlarning boshqa aloqa operatorlari bilan tegishli shartnomalar tuzgan bo'lsa, Abonentga bu tarmoqlar abonentlari bilan radiotelefon orqali ulanishni ta'minlash. Ushbu shart faqat Abonent mazkur xizmatni mustaqil faollashtirgan taqdirda yoki agar bu xizmat Abonent tanlagan Tarif rejasiga kiritilgan bo'lsa, kuchga egadir.

4.2.8. Aloqa xizmatlari haqi to'lanmagani uchun Operator tarmog'idan uzib qo'yilgan Abonentni uning shaxsiy hisobvarag'ida salbiy balans yuzaga kelgan vaqtdan boshlab 90 kalendar kun ichida foydalanilgan Aloqa xizmatlari haqini to'lashga doir qarzar tugatilib (so'ndirilib), Abonent tanlagan Tarif rejasiga muvofiq miqdorda bo'nak to'lovi kiritilgach, Operator tarmog'iga ulash.

4.2.9. Xizmat ko'rsatish hududida mobil aloqa tarmog'i qo'llanilayotgan standartning texnik normalariga muvofiq ishlashini hamda Abonentga shoshilinch tezkor xizmatlarni kecha-kunduz bepul chaqirish imkoniyatini ta'minlash

4.2.10. Ushbu shartnomani bajarish davomida Operatorga ma'lum bo'lgan Abonent shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash choralari ko'rish.

5. Abonentning huquq va majburiyatlari

5.1. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Mazkur shartnoma shartlariga binoan Aloqa xizmatlaridan foydalanish.

5.1.2. Operator ofislari, ularning ish vaqti va Operator ko'rsatadigan Aloqa xizmatlari to'plami haqidagi zarur va to'g'ri ma'lumotlardan foydalanish.

5.1.3. Hisob-kitoblar tartibini, Tarif rejasini, ko'rsatilayotgan Aloqa xizmatlari to'plamini Operatorning texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, Operator belgilagan tartibda o'zgartirish.

5.1.4. Operator tarmog'iga ulanishda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, ushbu shartnomada belgilangan shartlar va tartibda, Operator talablariga muvofiq tarzda Abonent qurilmasidan foydalanish.

5.1.5. O'ziga Aloqa xizmatlari ko'rsatishni to'xtatish to'g'risida Operatorni o'z tashabbusi bilan xabardor qilish.

5.2. Abonentning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

5.2.1. Aloqa xizmatlaridan foydalana boshlashdan oldin dolzarb Aloqa xizmatlari ro'yxati, Tarif rejalarini, Aloqa xizmatlari uchun tariflar (shu jumladan Roumingdan foydalanganda qo'llaniladigan Aloqa xizmatlari tariflari) hamda Operator va u taqdim etayotgan aloqa xizmatlari haqidagi boshqa zarur ma'lumotlar bilan tanishish.

5.2.2. O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlarga javob beradigan Abonent qurilmasidan uni ishlab chiqaruvchining foydalanish bo'yicha yo'riqnomasiga muvofiq foydalanish. Bunda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

a) muayyan hududda (aeroport, samolyot, antenna maydoni, metropoliten va h.k.) amalda bo'ladigan alohida farmoyishlar va qoidalar;
b) halal beruvchi shovqin yoki xavfli vaziyat yuzaga kelishi ehtimoli bor holatlardagi cheklovlar: tibbiyot muassasalari, texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari, yonilg'i saqlanadigan va ortiladigan hududlar, portlash ishlari olib borilayotgan joylar va h.k.;

Operator bu cheklovlar va talablar to'g'risida Abonentni xabardor qilishga majbur emas.

5.2.3. Aloqa xizmatlari haqini shartnoma shartlariga binoan hisob-kitoblarning amaldagi tartibi, tanlangan Tarif rejasi, Alohida xizmatlar to'plamlari hamda sotib olinayotgan Aloqa xizmatlari ro'yxatiga muvofiq o'z vaqtida va to'la hajmda to'lab borish.

5.2.4. Operatorga hujjatlar bilan tasdiqlangan Abonent haqidagi ma'lumotlarni, xat-xabarlarini yetkazish uchun aniq elektron va/yoki pochta manzilini, bank rekvizitlarini hamda SHartnoma ijro etilishi uchun kerakli boshqa ma'lumotlarni Operatorga u belgilagan hajmda taqdim etish.

Ushbu badda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda shunday o'zgarishlar sanasidan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun mobaynida Operatorga yangi ma'lumotlarni yozma shaklda taqdim etish.

Operator tegishli xabarni olgan sanadan boshlab, Aloqa xizmatlari Abonentning pochta manzili haqidagi yangi ma'lumotlardan foydalangan holda ko'rsatiladi

5.2.5. Huquqlarni ta'sis hujjatlarini yoki qonunda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnoma asosida ish olib boruvchi vakil orqali amalga oshirish.

5.2.6. SIM-karta/eSIM uchun QR-kod ko'rinishidagi identifikatsiya profili yo'qolgani to'g'risida Operatorga Axborot-ma'lumot markazi (Call-sentr) orqali darhol xabar berib keyinchalik Operatorning ofisiga yozma ariza taqdim etish.

Agar Abonent bu shartlarga rioya etmasa, toki Operator SIM-karta/eSIM uchun QR-kod ko'rinishidagi identifikatsiya profili yo'qolgani va xizmatlar ko'rsatish to'xtatilishi kerakligi to'g'risida Abonentning arizasini olguniga qadar yo'qolgan SIM-karta bo'yicha ko'rsatilgan Operator xizmatlari haqini to'lash majburiyati Abonent zimmasiga tushadi.

5.2.7. SIM-kartada/eSIMda shifrlangan va Operatorning tijorat siri hisoblanuvchi axborotni uchinchi shaxslar oloymasligini ta'minlash, SIM-kartadagi/eSIMda shifrlangan ma'lumotlar bilan quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik hamda uchinchi shaxslarga ham bunday imkoniyatni bermaslik: axborotni o'zgartirish, chiqarib olish, nusxa ko'chirish, ko'paytirish, tarqatish, boshqa axborot tashish vositalariga o'tkazish, boshqa huquqqa qarshi xatti-harakatlar.

5.2.8. SIM-kartaning/eSIM uchun QR-kod ko'rinishidagi identifikatsiya profili dublikatlarini tayyorlamaslik, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan shunday harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'yimaslik. Abonent bu majburiyatni bajarmagan taqdirda, uning aybi bilan Operator va u bilan bog'liq shaxslar ko'rgan zararlarni Abonent to'lashga majbur bo'ladi.

5.2.9. Abonent raqami (SIM-karta/eSIM)dan foydalanishda Kelishuvda turi ko'rsatilmagan abonent qurilmasini qo'llamaslik.

6. Aloqa xizmatlarining tariflari va hisob-kitob qilish tartibi

6.1. Tarif rejalarining shartlari, Alohida xizmatlar to'plamlarining va boshqa Aloqa xizmatlarining tariflari, jumladan Alohida toifadagi abonent raqamini berish, konstruktor rejimidagi maxsus moslashuvchan tariflarni taqdim etish shartlari va tartibi, shuningdek radiotelefon orqali ulanish davomiyligi, Aloqa xizmatlari narxlari birligi hamda to'liqsiz narxlar birligi uchun haq to'lash tartibi Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

6.2. Tarif rejaları (Tariflar)ning shartlariga o'zgartishlar Operator tomonidan bir tomonlama tartibda kiritiladi. Bu haqdagi tegishli ma'lumot Operatorning veb-saytida yoki ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi yoxud Operator uchun maqbul bo'lgan boshqa usulda Abonentlarga yetkaziladi.

Tarif rejaları (Tariflar)ga kiritilgan o'zgartishlar tegishli axborot Operatorning veb-saytida joylashtirilganidan (e'lon qilinganidan) keyin 10 (o'n) kun o'tgach kuchga kiradi.

6.3. Aloqa xizmatlarining tariflari O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda belgilanadi. Ko'rsatilgan Aloqa xizmatlari uchun barcha to'lovlar (dastlabki bo'nak to'lovi, bo'nak to'lovlari, mavjud qarzni so'ndirish uchun to'lovlar) O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi va Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Aloqa xizmatlari uchun to'langan pul mablag'larini Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida aks ettirish va ularni hisobdan chiqarish tartibi Operator tomonidan belgilanadi.

6.4. Aloqa xizmatlari qiymati qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladi, lekin qonunchilikda boshqa holat ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

6.5. Abonent quyidagi to'lovlarni amalga oshiradi:

6.5.1. Abonent to'lovi;

6.5.2. Operator tarmog'ida radiotelefon orqali chiquvchi ulanishlar va boshqa operatorlarning raqamlariga radiotelefon orqali chiquvchi ulanishlar;

6.5.3. ma'lumot uzatish tarmog'i bo'yicha ulanishlar (keyingi o'rinlarda – aloqa seanslari);

6.5.4. Roumingda radiotelefon orqali chiquvchi va kiruvchi ulanishlar;

6.5.5. chiquvchi SMSlar;

6.5.6. boshqa xizmatlar, shu jumladan Kontent-provayderlar va boshqa uchinchi shaxslar tomonidan Operator tarmog'i orqali taqdim etiladigan xizmatlar.

6.6. To'lov radiotelefon orqali ulanishlar/aloha seanslarining davomiyligiga hamda radiotelefon orqali ulanish/aloha seansining tegishli turiga qarab, Aloqa xizmatlarini ko'rsatish vaqtida amalda bo'lgan Tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

6.7. Ushbu shartnoma bo'yicha aloqa xizmatlarining umumiy qiymati 2142 000 so'mni, QQS bilan 2520.000 (Ushbu shartnoma bo'yicha aloqa xizmatlarining umumiy qiymati 2142 000 so'mni tashkil qiladi.)

6.8. Abonent Aloqa xizmatlari haqini Operatorning bank hisobvarag'iga naqdsiz shaklda quyidagi tartibda to'laydi:

a) ushbu shartnomaning 6.7-bandida ko'zda tutilgan Aloqa xizmatlari yillik qiymatining 100 % miqdoridagi dastlabki bo'nak to'lovi ushbu shartnoma uning 9.8-bandida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab 14 (o'n to'rt) kalendar kun mobaynida amalga oshiriladi.

Dastlabki bo'nak to'lovi kiritilmasligi Abonent ushbu shartnomani bajarishni rad etganligini bildiradi;

b) Aloqa xizmatlari uchun keyingi to'lovlar Abonent tomonidan har oyda, Operator tugagan oy uchun to'lovnoma-faktura taqdim etgan vaqtdan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida amalga oshiriladi.

6.9. To'lovnoma-fakturada Aloqa xizmatlari qiymati va qo'shilgan qiymat solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda ko'rsatiladi.

To'lovnoma-faktura elektron to'lovnoma-fakturalar axborot tizimida elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

Abonent elektron to'lovnoma-fakturalar axborot tizimida Operator tomonidan rasmiylashtirilgan, jumladan to'lovi Kafillik shartnomasiga muvofiq Kafil tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar bo'yicha to'lovnoma-fakturalarni o'z vaqtida tasdiqlashi shart.

6.10. Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'idan Operatorning AHKTda hisoblanadigan summalar Operator belgilagan tariflarga va Abonent tomonidan tanlangan tarif rejasi shartlariga muvofiq avtomatik tarzda yechib olinadi.

6.11. Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida salbiy balans yuzaga kelganda Operator Abonentga Aloqa xizmatlari ko'rsatilishini to'xtatib turishga, jumladan davom etayotgan suhbatni uzib qo'yishga haqli.

6.12. Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'idagi mablag'larni u foydalanayotgan Aloqa xizmatlari miqdorida darhol yechib olishning imkoni bo'lmaydigan hollarda foydalanilgan Aloqa xizmatlari uchun hisoblangan to'lovlar kechiktirilgan rejimda to'planadi. Agar Abonent shaxsiy (elektron) hisobvarag'ining balansi to'plangan summalar qayta hisoblanganidan keyin salbiy ko'rsatkichga ega bo'lsa, Tarafklar Abonentning Operator oldidagi bunday qarzini bahs-munozarasiz qarzdorlik deb belgilaydilar.

6.13. Ushbu shartnoma bekor qilingan taqdirda, foydalanilmagan va Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida turgan summa Taqqoslash dalolatnomasi asosida uni har ikki Taraf imzolagan sanadan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida Operator tomonidan Abonentning bankdagi hisobvarag'iga naqdsiz shaklda qaytariladi.

Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida qolgan (sarflanmagan) summa O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda qaytariladi.

Ushbu shartnoma bekor qilinadigan hollarda:

- a) Operator tarmog'iga kirish imkoni berilgani uchun to'lov qaytarilmaydi;
- b) o'tkazilayotgan aksiyalar doirasida Operator tomonidan taklif qilingan bonuslar pul ekvivalentida to'lanmaydi;
- v) Abonentning mulki bo'lgan Abonent qurilmasi sotib olinmaydi;
- g) olingan Alohida toifadagi abonent raqamini tanlash xizmati uchun to'langan mablag' qaytarilmaydi.

6.14. Abonent Operatorga yozma ravishda murojaat qilib, foydalanilgan Aloqa xizmatlari hamda shaxsiy (elektron) hisobvaraqdan sarflangan mablag'lar haqidagi batafsil ma'lumotlarni Operator belgilagan tariflar bo'yicha olishga haqli.

6.15. Abonent ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ko'rsatilgan, lekin haqi to'lanmagan Aloqa xizmatlari uchun Operator tomonidan hisoblangan barcha summalarni so'zsiz e'tirof etadi.

6.16. Abonentning Aloqa xizmatlari haqini to'lash borasidagi majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxs (kafil) bilan kafillik shartnomasi (Operator tasdiqlagan namunaviy shaklda) tuzilishi mumkin. Bu shartnomaga ko'ra, uchinchi shaxs (kafil) Aloqa xizmatlari haqini to'lash borasida Abonentning Operator oldidagi majburiyatlari bo'yicha javob berish majburiyatini oladi. Operator va Abonentning kafil bilan munosabatlari kafillik shartnomasi shartlari hamda kafillik to'g'risida amalda bo'lgan qonun hujjatlari normalariga muvofiq tartibga solinadi.

6.17. Abonent uning boshqa barcha shaxsiy (elektron) hisobvaraqlaridagi qarzdorlikni yoki avvalgi SHartnomalar bo'yicha mavjud qarzdorlikni so'ndirish uchun Operator Abonentning SHaxsiy (elektron) hisobvarag'idagi mavjud pul mablag'larini chiqarib olishiga o'z roziligini beradi.

7. Taraflarning javobgarligi

7.1. Operator ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim tarzda bajarmagan taqdirda, Abonentning talabiga ko'ra, Abonent talab qilgan sanadan boshlab 20 kundan kechikmay, kamchiliklarni bartaraf etishi shart. Bunda Operator ko'rilgan zarar o'rnini qoplamaydi va boshqa biron to'lovni amalga oshirmaydi.

7.2. Operator taqdim etgan to'lovnoma-fakturalar bo'yicha aloqa xizmatlari haqini to'lash muddati kechikkan taqdirda Abonent Operatorga kechikkan to'lov summasining 0,1% miqdorida, lekin kechikkan to'lov summasining 50%dan oshmaydigan hajmda penya to'laydi. Neustoykani undirish Taraflarning huquqi, lekin ushbu SHartnoma bo'yicha so'zsiz bajarilishi shart bo'lgan majburiyat emas.

7.3. Abonent SIM-kartani/eSIM uchun QR-kod ko'rinishidagi identifikatsiya profilini yo'qotib qo'ygan taqdirda (yo'qotgan, o'g'irlatgan va boshqa hollarda) toki Operator Abonentdan SIM-karta/ eSIM uchun QR-kod ko'rinishidagi identifikatsiya profilini yo'qolgani to'g'risida yozma ariza olguniga qadar, Aloqa xizmatlari haqini to'lash majburiyati Abonent zimmasida bo'ladi.

7.4. Abonent telekommunikatsiya sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi talablar va normalar, shu jumladan Operatorning SIM-kartasi/abonent qurilmasining eSIM virtual identifikatori GSM-shlyuzlarga noqonuniy ulangani uchun javobgar bo'ladi.

7.5. Taraflar olinmay qolgan foyda tarzida ko'rilgan zarar qoplanishi uchun javobgar bo'lmaydilar.

7.6. Operatorning SIM-kartasidan GSM-shlyuzlar va boshqa ruxsat etilmagan qurilmalarda noo'rin foydalanilishi, shuningdek elektron to'lovnoma-fakturalar axborot tizimida Operator rasmiylashtirgan to'lovnoma-fakturalar kechikib tasdiqlangani yoki tasdiqlanmagani natijasida Operator ko'rgan zararni Abonent qoplashi shart.

7.7. Ushbu shartnomada ko'zda tutilgan tartibda tarqatilgan tariflar o'zgartirish to'g'risidagi axborot Abonent tomonidan olinmagani uchun Operator javobgar bo'lmaydi.

7.8. eSIM faollashtirilganda va undan foydalanilganda Operator Abonent qurilmasi uchun javobgar bo'lmaydi.

8. E'tirozlarni ko'rib chiqish va nizolarni hal etish tartibi

8.1. Operator ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim tarzda bajarmagan hollarda Abonent Operatorga e'tiroz bildirishi mumkin. Operator e'tirozni u kelib tushgan sanadan boshlab o'n besh kunda, materiallar qo'shimcha o'rganilishi kerak bo'lgan hollarda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqishi shart.

8.2. Abonent Aloqa xizmatlaridagi kamchiliklar bilan bog'liq o'z e'tirozlarini 6 (olti) oydan kechikmay taqdim etishi lozim.

8.3. Ushbu shartnomaning ijrosi bilan bog'liq barcha nizolar va kelishmovchiliklarni Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga hamda ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, kelishuv protseduralari yo'li bilan hal qiladilar. Kelishuvga erishilmagan nizolar Operator joylashgan manzildagi sudlarda ko'rib chiqiladi. Sudga murojaat qilishdan oldin suddan oldingi e'tiroz bildirish tartibiga rioya etilishi shart.

9. Boshqa shartlar

9.1. Taraflar ularning ushbu shartnomani imzolagan vakillari mazkur shartnomani tuzish va undan kelib chiquvchi, lozim tarzda rasmiylashtirilgan, to'liq kuchga ega va amalda bo'lgan barcha majburiyatlarni bajarish uchun vakolatga hamda barcha zarur ijozatlarga egaligini tasdiqlaydilar va kafolatlaydilar.

9.2. Taraflarning hech biri ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini ikkinchi Tarafning yozma rozilgisiz uchinchi tarafga berishga haqli emas.

9.3. Taraf uning manzili, shuningdek bank va boshqa rekvizitlari o'zgargan taqdirda shu o'zgarish vaqtdan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida bu haqda boshqa Tarafni xabardor qilishga majbur. Bu majburiyat bajarilmagan taqdirda avvalgi rekvizitlar bo'yicha ijro ushbu shartnoma doirasida majburiyatlar lozim tarzda bajarilishi hisoblanadi.

9.4. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlarda Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga tayanadilar.

9.5. Taraflar ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq yoki undan kelib chiquvchi barcha xabarlar va bildiruvnomalarni o'zbek tilida tuzishlari va bir-birlariga quyidagi tarzda yuborishlari kerak:

- ushbu shartnoma tarafining vakolatli yoki boshqa har qanday xodimiga shaxsan topshirib, bu haqda tilxat olish;
- bunday imkoniyat yo'q bo'lsa, topshirilgani haqida xabar beriladigan buyurtma xat bilan jo'natish;
- elektron pochta orqali yuborish.

9.6. Ushbu shartnoma Taraflarning xohish-irodasiga ko'ra bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada, o'zbek tilida tuzildi.

9.7. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati 20 ___ yil "___" _____ dan 20 ___ yil 31 dekabrgacha.

9.8. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining normalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida (g'aznachilik bo'linmalarida) ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

10. Shartnoma Taraflarining rekvizitlari

OPERATOR

«UMS» MCHJ

O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent,

YUnusobod tumani, Amir Temur shoxko'chasi, 24

X/r: 20214000300381984001

MFO: 00401

STIR: 303020732

OKED 61200

M.O.



ABONENT

UK "Chirchiq Hidravlik Elektr Stansiyalar Kaskadi"

111700, Uzbekiston, Chirchiq shahar, D.Rozit, d.2a

Телефон рақами: 03707161022

X/p: 20210000900128585001

T.ZANGIOTA, SAVDOBANK "TURONBANK"

BU'LIMI

MFO: 01019

СТИР: 200942018



Соглашение
к Договору на оказание услуг мобильной связи № 170100991679 от 05.01.2022 г

г. Ташкент

05.01.2022 г

Предоставленные абонентские номера: 998977029089 998977118257 998977580075

Информация о юридическом лице

Наименование	UK "Chirchiq Gidravlik Elektr Stansiyalar Kaskadi"		Код плательщика НДС	
Юр. адрес	111700, Uzbekiston, Chirchiq shahar, D.Rozit, д.2а			
Адрес доставки	111700, Uzbekiston, Chirchiq shahar, D.Rozit, д.2а			
Тип компании	<input checked="" type="checkbox"/> Резидент	<input type="checkbox"/> Нерезидент	Контактный телефон	
Ф.И.О. руководителя			Ф.И.О контактного лица	
Название банка	ЗАНГИОТ.Р-Н, ФИЛИАЛ КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА ТУРОНБАНК	Р/С	20210000900128585001	МФО 01019 ИНН 200942018

Дополнительные услуги

Тарифицируемые услуги <i>Установить услуги</i>	Не тарифицируемые услуги Услуги активируются автоматически при новом подключении. Абонент имеет право отказаться от получения этих услуг. <i>Установить услуги:</i>
<input type="checkbox"/> Вам звонили / Я на связи	<input checked="" type="checkbox"/> Запрос баланса
<input type="checkbox"/> Доставка счета курьером	<input checked="" type="checkbox"/> Интернет доступ без настроек
<input type="checkbox"/> Запрет определения номера	<input checked="" type="checkbox"/> Конференц-связь
<input type="checkbox"/> Международный роуминг	<input checked="" type="checkbox"/> Междугородний доступ
	<input type="checkbox"/> Международный доступ
	<input checked="" type="checkbox"/> Мобильный интернет
	<input checked="" type="checkbox"/> Ожидание / Удержание вызова
	<input checked="" type="checkbox"/> Определитель номера
	<input checked="" type="checkbox"/> Переадресация
	<input checked="" type="checkbox"/> Служба коротких сообщений (SMS)

Иные дополнительные услуги:

<input type="checkbox"/> «Выгодная сделка» (полгода)	<input type="checkbox"/> «Выгодная сделка» (год)
--	--

Установить тарифный план:

Структура тарифного плана	Стоимость без НДС (сум)	Стоимость с НДС (сум)
Corporate Maxi	54917,6087	63155,25
Итоговая стоимость	54917,6087	63155,25
Итоговая стоимость по соглашению	164752,8261	189465,75

Стоимость исх. минуты разговора сверх установленного лимита		Стоимость SMS/MMS сверх установленного лимита	
Абонентам всех мобильных операторов Узбекистана	105,26	Входящее SMS	0
На городские телефоны	105,26	Исходящие SMS абонентам всех мобильных операторов Узбекистана	84,21
Стоимость мобильного интернета сверх установленного лимита		Исходящие международные SMS	631,5525
1 Mb интернет-трафика	210,5175		

Иные дополнительные условия:

Все звонки внутри корпоративной группы - 0 сум.

Информация по счетам и карточкам лицевого счета выдавать 4-7 числа каждого месяца.

Отправка по: E-mail Почта Курьер Не определен/на руки

Тип абонентского устройства _____

- Тарифы на Услуги связи устанавливаются в национальной валюте Республики Узбекистан - сум
- Неиспользованные голосовой, SMS и интернет-пакеты аннулируются и на следующий период не переносятся.
- Тарификация по минутам.
- Продолжительность соединения округляется до полной единицы.
- При переходе с данного тарифного плана на любой другой тарифный план списанная абонентская плата не возвращается.



АБОНЕНТ / _____



ОПЕРАТОР / _____



LITSENZIYA ЛИЦЕНЗИЯ

AA № 0005152

Типовая

Litsenziya turi
Вид лицензии

Berilgan sana
Дата выдачи

08 сентября 2014 г.

Litsenziyaning amal qilish muddati:
Срок действия лицензии:

08.09.2014г. dan 08.09.2029г. gacha

Общество с ограниченной ответственностью
«UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS»

Litsenziatning nomi:

Наименование Лицензиата:

г.Ташкент, Юнусбадский район, проспект Амира Темура, д.24, р/с 20208000900381984001
в ГОО АК «Алокабанк», МФО 00401, ИНН 303020732

Litsenziatning manzili va bank rekvizitlari

Адрес и банковские реквизиты Лицензиата

USHBU LITSENZIYA BILAN FAOLIYAT KO'RSATISHGA RUXSAT ETILADI:
НАСТОЯЩЕЙ ЛИЦЕНЗИЕЙ РАЗРЕШЕНО ОСУЩЕСТВЛЯТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ:

Проектирование, строительство, эксплуатация и оказание услуг сетей
подвижной радиотелефонной (сотовой) связи

ILOVA QILINGAN LITSENZIYA SHARTNOMASIGA MUVOFIQ
В ОТВЕТСТВИИ С ПРИЛАГАЕМЫМ ЛИЦЕНЗИОННЫМ СОГЛАШЕНИЕМ



Rahbarning imzosi:
Подпись руководителя:

Litsenziyaning amal qilish muddati:
Срок действия лицензии:

dan po gacha uzaytirildi

M.O:
M.II.

Rahbarning imzosi:
Подпись руководителя:

Litsenziyaning amal qilish muddati:
Срок действия лицензии:


dan po gacha uzaytirildi

M.O:
M.II.

Rahbarning imzosi:
Подпись руководителя:

(Ilova qilingan litsenziya shartnomasi mazkur litsenziyaning ajralmas qismidir)
(Прилагаемое лицензионное соглашение является неотъемлемой частью настоящей лицензии)

Реестр № 393



«Universal Mobile Systems»
Mas'uliyati cheklangan jamiyati

Общество с ограниченной
ответственностью
«Universal Mobile Systems»

O'zbekiston, 100000
Toshkent shahri, Amir
Temur shoh ko'chasi, 24.
Tel: (+99897) 403 83 35
Faks: (+99871) 235 81 60,
e-mail: info@mobi.uz
www.mobi.uz

ДОВЕРЕННОСТЬ № 0349/21

« 6 » декабря 2021 г.

г. Ташкент

Настоящей доверенностью Общество с ограниченной ответственностью «Universal Mobile Systems» (далее по тексту – ООО «UMS»), созданное и зарегистрированное в соответствии с законодательством Республики Узбекистан (свидетельство о регистрации № 007770, реестровый № 009356-10), расположенное по адресу: Республика Узбекистан, 100000, г. Ташкент, проспект Амира Тимура, дом 24, в лице Генерального директора Арипова Собира Хамидиллаевича, действующего на основании Устава, уполномочивает Специалиста функциональной группы по работе с ключевыми клиентами Центра обслуживания в г. Ташкент **Ирисова Абнора Исраиловича (IRISOV ABROR ISRAILOVICH)** (серии паспорта AA 9433308, выдан 24.04.2015г. TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMANI IIB):

- 1) подписывать от имени ООО «UMS»:
 - Договора на оказание услуг мобильной связи;
 - соглашения и приложения к Договору на оказание услуг мобильной связи;
 - Дополнительные Соглашения к Договору на оказание услуг мобильной связи;
 - Регистрационные бланки к Договору на оказание услуг мобильной связи;
 - Договора поручительства с третьими лицами, обязующимися отвечать перед ООО «UMS» по обязательствам соответствующих абонентов, по оплате предоставленных доверителю услуг связи;
 - счета, счета-фактуры на предоставляемые услуги;
 - периодические (разовые) детализированные счета.

2) Осуществлять сверку взаимных расчетов с абонентами по вопросу фактически произведенных начислений за оказанные услуги связи и осуществленных абонентом выплатах, а также фиксировать результаты сверки актом с правом его подписания, кроме случаев возникновения обязательств Компании по возврату денежных средств абоненту.

Настоящая доверенность выдана без права передоверия и действует с 01.01.2022 г. по 31.12.2022г.

Образец подписи **Ирисова Абнора Исраиловича**

заверяю.

Генеральный директор

Главный бухгалтер



С.Х. Арипов

Е.В. Маркелова